
Ishlarni nazorat tartibida ko`rish bekor qilindi

“Bir sud – bir instantsiya” tamoyili asosida sud qarorlarini qayta ko`rish tizimida yillar davomida to`planib kelingan muammolarni bartaraf etish ko`zda tutilgan. To`rt bosqichli sud instantsiyalari o`rniga uch bosqichli sud tizimi tashkil etilishi natijasida nazorat tartibida ko`rish instantsiyasi bekor qilinadi. Odil sudlovni ta`minlashda fuqarolarni ortiqcha ovoragarchiliklardan asrash, birinchi instantsiya, apellyatsiya hamda kassatsiya instantsiyasi sudbyalarining sud ishlarini ko`rishda ularning mas`uliyatini oshirish, ushbu instantsiyalarni isloh qilish, kassatsiyaning uchinchi instantsiya sudi sifatida belgilanishi natijasida sud qarorlarining qonuniyligi, asosligi va adolatligi bevosita undan norozi tomonning to`g`ridan-to`g`ri bergan shikoyati asosida ko`rilishiga erishish, sudlarda ishlarni nazorat tartibida ko`rib chiqish bo`yicha bir-birini takrorlovchi instantsiyalarni qisqartirishdan iborat.

2021 yil 12 yanvardagi “Jinoyat ishlari bo`yicha sud qarorlarini qayta ko`rish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O`zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual kodeksiga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida” gi O`RQ-664-son Qonuni bilan O`zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan o`zgartirishlarga ko`ra, ishlarni nazorat tartibida ko`rish instantsiyasi tugatildi.

Surishtiruvchi, tergovchi, sud majlisi kotibi ma`lum bir ishda qatnashganidan so`ng keyinchalik uni qayta ko`rib chiqish uchun surishtiruvni, dastlabki tergovni yuritishda takroran ishtirok etishi, shuningdek sud majlisi bayonnomasini yuritishi mumkin.

Endilikda sudda jinoyat ishini muhokama qilish faqat ayblanuvchilarga nisbatan va e`lon qilingan ayblov bo`yicha olib boriladi (ilgari haqiqatni aniqlash maqsadida – ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan boshqa shaxslarga nisbatan olib borilar edi).

Sudlanuvchini yangi ayblov bo`yicha jinoiy javobgarlikka tortish asoslarini aniqlash endilikda sudlanuvchining, uning himoyachisining, qonuniy vakilining iltimosnomasiga ko`ra ham amalga oshiriladi (ilgari ushbu tartib faqat prokurorning yoki jabrlanuvchining, uning vakilining iltimosnomasiga ko`ra amalga oshirilgan).

Jinoyat ishlari bo`yicha

Beshariq tuman sudining raisi

F.Sobirov

2021-02-22 11:19:26